

AMALIYOTCHI PSIXOLOGNING MUHUM VAZIFALARI.

Davletova Muborak Ro'zimboyevna

Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani 38-maktab psixologi

Maqsudova Shohista Muhammadjonovna

Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani 56-maktab psixologi

Anotatsiya: Ushbu maqolada maktab psixologining ta'lim muassasasidagi muhim vazifalari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, nutq, psixoprofilaktika, psixodiagnostika, psixokonsultatsiya, psixolog imidj, psixologik maslahat.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarga individual yondashuv zarurligi hamma tomonidan tan olingan, lekin undan amalda kam foydalaniladi. Bunga maktabda o'qituvchilarning bola haqida ko'p gapirishlari dalil bo'ladi. Chunki maktabda o'quvchining qobiliyatlari, shaxsning asosiy xislatlari haqida chuqur va har tomonlama ma'lumot beradigan mutaxassis yo'q. Ta'lim-tarbiyadagi individual yondashuv, bolani boshqalardan ajratib alohida o'qitishni bildirmaydi, balki shaxsning u yoki bu xislatlarining shakllanishida maxsus sharoitlarni hisobga olish, har bir o'quvchining individual psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda tushunishni anglatadi. Psixologiyada shaxsning individual xususiyatlari deganda bir shaxsni ikkinchi shaxsdan farqlaydigan xususiyatlar tushuniladi. Individual yondashuvning vazifasi - rivojlanishning individual usullarini aniqlash, bolaning imkoniyatlarini har bir shaxsning faolligini ta'minlashdan iborat. Bu nuqtayi nazardan olganda individual yondashuv faqatgina «tarbiyasi qiyin» bolalarga emas, barcha o'quvchilarga ham zarurligi tushunarli bo'ladi. Ko'p qirrali va to'liq tashxis natijalari psixolog uchun ham, ota-onalar, o'qituvchilar uchun ham «tarbiyasi qiyin» bola bilan olib boriladigan tuzatish va rivojlantirish ishlarining yo'llarini aniqlash imkonini beradi. Bu usul yutuqlar bilan birga kamchiliklarga ham ega. Bu usulni qo'llash juda ko'p vaqtni olganligi uchun, uni amalga oshirishning har doim ham iloji bo'lmaydi. Negaki, uzoq vaqt davomida nafaqat psixolog, balki «tarbiyasi qiyin»

o'quvchi ham charchaydi, tekshiruvda ishtirok etishdan bosh tortadi, topshiriqlami o'zi sezmaganda holda nomiga bajaradi.

Tajribadan ma'lum bo'lishicha, ayniqsa, og'zaki metodikalar qanchalik to'liq bo'lmasin, qiyinchilik tug'diradi. Bundan tashqari bunday metodikalar shaxsni to'liq xarakterlash uchun yetarli bo'lmaydi. Rasmiy iltimosga qanday munosabatda bo'lish kerak? Kollej psixologi javob beradigan birinchi savol mana shu. Rasmiy iltimosga ikki xil munosabat, ikki xilma-xil ish uslubi mavjud.

Birinchi, rasmiy iltimosga o'ziga xos bo'lmagan javob qaytarishdir. Bu ikki usul bilan amalga oshiriladi. Birinchidan, rasmiy talabga javob tarzida (uning mazmuniga bog'liq bo'lmagan holda) psixodiagnostik metodlar to'plami qo'llaniladi.

Ikkinchidan, rasmiy talabga o'ziga xos javob qaytarishning usuli bo'lib, mashhur amerikalik psixolog K.Rodgers psixologiya fani va amaliyotiga kiritgan psixologik ish to'g'ri hisoblanadi. Uning fikricha, «tarbiyasi qiyin» bola bilan ishlash uchun, rasmiy talabning mazmuni qiyinchiliklar sabablarini tushunishga teng, lekin bu muhim ahamiyatga ega emas. Bola shaxsini rivojlantiradigan shunday sharoit yaratish kerakki, bu sharoit uni xulq-atvoming salbiy shakllaridan voz kechishga va yangi ijobiy shakllarini yaratishga majbur qilsin. Rasmiy iltimosga o'ziga xos bo'lmagan javob qaytarishga teskari uslub — bu rasmiy talabga qat'iy mos tushadigan diagnostik metodikalarni tanlashdan iborat: masalan, yomon o'zlashtirish haqida shikoyat tushganda, birinchi navbatda bilish jarayonlarining taraqqiyoti tahlil qilinadi. Bunday tashxis o'zlashtirmaslik sabablarini aniqlay olmasagina, boshqa ko'rsatkichlar qaraladi. Tashxis natijalariga mos ravishda, ko'pincha trening turida amalga oshiriladigan tuzatish ishlari olib boriladi. Masalan, xotira kuchsiz rivojlanganda, uni maxsus mashq qildirish maqsadga muvofiq, ixtiyoriylik yetarli darajada rivojlanmaganda, uni shakllantirishning maxsus dasturlari kiritiladi.

Psixoprofilaktik ishlarning usullaridan biri pedagogic psixologik konsiliumni tashkil etishdir. Yu.K.Babanskiyning ta'kidlashicha, o'quvchilarni o'rganishni yaxshi yo'lga qo'yish uchun, toliq yozma tavsifnomalar yozishdan ko'ra sinf o'qituvchilarining o'quvchilar haqidagi fikrlarini jamoa bo'lib muhokama qilish, sinfga va o'quvchilarga individual yondashuv rejalarini ishlab chiqish yaxshi natijalar beradi

Psixologik-pedagogik konsilium o'qishda orqada qolish sabablarini yoki xulq-atvordagi kamchilik natijalarini muhokama qilishga yo'naltirilgan bo'lidi Pedagogik konsiliumda psixologning vazifasi — o'quvchi intellektual taraqqiyotini baholashda o'qituvchilarga har xil tomondan yondoshuvga yordamlashishdan iborat. Pedagogik konsilium imkoniyatlarini baholashda sub'yektivizmdan holi bo'lishga, ulami obyektiv baholash imkonini beradi. Lekin, shuni ta'kidlash lozimki, o'qituvchilarda u yoki bu o'quvchi haqida o'z fikri bo'ladi, bu fikrlarni o'zgartirish juda qiyin. Shuning uchun konsilium natijasi foydali bo'lishi uchun psixolog unga jiddiy tayyorlanishi kerak. Psixolog konsiliumda ishtirok etib quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1. Pedagogik jamoa o'quvchi psixik va shaxsiy xarakteristikalarini turli tomondan ko'rsatish, bunda albatta ijobiy kuchli tomonlarni ta'kidlash joiz. Kuzatish, suhbat, psixotashxis natijalariga asoslanib, o'quvchi muammolarining kelib chiqishi haqida isbotlangan farazlarni keltirish zarur.

2. Har bir o'qituvchida o'quvchiga nisbatan munosabatni o'zgartirishga erishish zarur. Bu juda qiyin vazifa bo'lib, uni ehtiyotkorlik bilan hal qilish zarur, konsilium o'tkazguncha sekin-asta boshlash kerak. Ko'pincha o'qituvchi o'quvchiga nisbatan fikrini o'zgartirgisi kelmaydi. O'qituvchi bunda psixolog nima haqida gapirayotganini tushunmaganligi uchun emas, balki ongli ravishda o'z hayotini murakkablashtirgisi kelmaganligi uchun shunday qiladi.

3. Barcha o'qituvchilarning o'quvchi muammolarini, uning shaxsi mohiyatini jamoa bo'lib, tushunishlariga erishish. Faqat ana shu holda o'quvchi foydasiga o'zaro harakat qilishlariga ishonish mumkin.

Shunday qilib, psixologik-pedagogik konsilium psixoprofilaktik ishning muhim bosqichi hisoblanadi. Yuqori darajada tayyorlangan konsilium—o'quvchilar, o'qituvchilar va butun jamoaning rivojlanishiga yordam beradi.

Maktab psixologining lavozim majburiyatlariga quyidagilar kiradi. O'quvchilarni muassasalarda tarbiyalash va o'qitish jarayonida ruhiy, jismoniy (somatik) va ijtimoiy farovonligini muhofaza qilishga yo'naltirilgan asbiy faoliyatni amalga oshirish; o'z faoliyatini olib borish uchun tanlagan ta'lim muassasasining yo'nalish bo'yicha bilimlarga ega bo'lish zarurligi, "Nurli maskan" ta'lim muassasalarida brayl alifbosi, eshitishida

nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan muassasalarda imo-ishora va daktil nutqni bilish va qo‘llay olishi, aqliy rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan muassasalarda logopediya va psixonevrologiya bilimlarini bilish; “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyaga muvofiq shaxs huquqlarini himoya qilishga, ta’lim muassasasi ijtimoiy sohasini uyg‘unlashtirishga ko‘maklashish va ijtimoiy jihatdan ko‘nika olmaslik hollari yuzaga kelishining oldini olish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish; o‘quvchilar rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash va turli ko‘rinishdagi psixologik yordam (psixokorreksiya, rehabilitatsiya va konsultatsiya) berish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshiradi, o‘quvchilar, ota-onalar (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar), pedagogik jamoaga aniq muammolarni hal qilishda yordamlashish; turli yo‘nalish va maqsadlarda psixologik diagnostika o‘tkazish, ruhiy, jismoniy va aqliy qobiliyat, moyillik, imkoniyat kabi sifatlarni aniqlash uchun testlar o‘tkazish, test natijalarini tahlil qilish va baholash; bola ruhiyatidagi salbiy o‘zgarishlarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish, bu borada tegishli davlat idoralari bilan hamkorlik ishlarini olib borish; turli yosh davrlarida o‘quvchilarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish, ta’lim-tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlash, ularning aqliy taraqqiyotida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan har qanday salbiy og‘ishlarning oldini olishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish; o‘quvchilar shaxsining individual yosh xususiyatlari, jinsini hisobga olib ta’lim faoliyatining rivojlantiruvchi va tuzatuvchi dasturlarini rejalashtirish va ishlab chiqishda ishtirok etish, ularda hayotiy va kasbga yo‘nalish olishning turli vaziyatlariga moslashuvchanlikka tayyorgarlikni rivojlantirishga ko‘maklashish; korreksion-rivojlantiruvchi mashg‘ulotlarga muhtoj bo‘lgan o‘quvchilarni to‘liq qamrab olinishi bo‘yicha ish olib borish hamda interaktiv so‘rovnomalar o‘tkazish va shu asosda kasbhunarga bo‘lgan qiziqishini aniqlash va ularning ma’lumotlar bazasi yaratish; emotsional-hissiy zo‘riqishlar, xavotirlik darajasi yuqori va o‘ziga ishonchi past bo‘lgan bolalar uchun korreksion-rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar tashkil etish, o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish maqsadida seminar-treninglar hamda soha mutaxassislari bilan davra suhbatlarini tashkil etish, shuningdek, kasbiy moyilligi bo‘yicha professional ta’lim olishi mumkin bo‘lgan o‘quvchilar o‘rtasida kasbga yo‘naltirish; ta’lim muassasasi

bitiruvchilarini ta'limning keyingi bosqichiga to'g'ri yo'naltirish yuzasidan o'quvchilar va ularning ota-onalari o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib boradi hamda korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlarga muhtoj bo'lgan o'quvchilarni, ota-onalar va pedagoglar to'liq qamrab olingani va o'quvchi-yoshlar o'rtasida deviant xulq atvor ko'rinishlarining (zo'ravonlik, o'z joniga qasd qilish, erta tug'ruq) oldini olish; iqtidorli o'quvchilarni psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning rivojlanishi va izlanishlariga ko'maklashish; o'quvchilarning rivojlanishidagi (aqliy, jismoniy, hissiy), turli ko'rinishdagi ijtimoiy rivojlanishidagi muammolarni aniqlash va ularni psixologik-pedagogik jihatdan tuzatishni amalga oshirish; pedagogik jamoalarda sog'lom psixologik muhitni yaratish va qo'llab-quvvatlash, jamoa a'zolarining hissiy-emotsional holatlari, shaxslararo munosabatlar va ziddiyatli xatti harakatlarni korreksiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish bo'yicha ishlarni olib borish; o'quvchilarning individual-psixologik, fiziologik xususiyatlari va qiziqishlarini o'rganish, qobiliyatlarini namoyon etishlari va rivojlantirishlari uchun amaliy yordam ko'rsatish; axborot-psixologik xurujlarning xavfi, internet jahon axborot tarmog'ining salbiy ta'siri, yoshlar tarbiyasiga xavf solayotgan "ommaviy madaniyat"ning kirib kelishi holatlarining oldini olishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish; Pedagog xodimlar, o'quvchilar hamda ota-onalarning psixologik-pedagogik bilimlarini oshirishga ko'maklashish, pedagog xodimlar, ota-onalar va jamoat tashkilotlarining samarali hamkorligini ishlarini olib borish; o'qituvchilar jamoasi va ota-onalarga o'quvchilarning shaxs va ijtimoiy jihatdan rivojlanishi muammolari bo'yicha yo'nalish berish maqsadida o'rganish natijalariga ko'ra psixologik-pedagogik xulosa tayyorlash; ta'lim muassasasi xodimlarini o'quvchilar, pedagog xodimlar, ota-onalar (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) ijtimoiy-psixologik xabardorlik darajasini oshirishga yo'naltirilgan psixologiyani amalda qo'llash, muassasaning rivojlanishi masalalarida maslahatlar berish; o'z kasbiy malakasini muntazam ravishda oshirib borish va boshqa ko'rinishdagi metodik ishlarda qatnashish; ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish; ta'lim muassasa obro'si va sha'niga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish; amaldagi me'yoriy hujjatlarda belgilangan tartibda o'z

vaqtida tibbiy ko'rikdan o'tish; ta'lim muassasasi ustavi, kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish; foydalanish uchun o'ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o'zi ish olib boradigan xonada yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

Foydalanildan adabiyotlar:

1. Umumiy psixologiya. T.: O'qituvchi, 1992. – 512 s.
2. Nemov R.S. Psixologiya Kn. M.: Prosveshenie – 1994. – 576 s.
3. G'oziev E. Psixologiya. T.: O'qituvchi, 1994 – 300 b.
4. Klimov E.A. Osnovi psixologii. Ucheb. M.: YuNITI, 1997. – 295 s.
5. Godfrua J. Chto takoe psixologiya. T. M.: Mir. 1992 – 496 s.
6. Z. Nishonova “Psixologik xizmat. ” Toshkent 2002